

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025  
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbonova</b> Dual ta'lim tizimi oliy ta'limda: xalqaro tajribalar, samaradorlik va O'zbekiston konteksti .....	6
<b>Л.К.Орынбаева, У.С.Марчибаева, Е.К.Сейсенбеков</b> Актуальность программ повышения квалификации в формировании компетентностей педагога Казахстана .....	12
<b>Н.Ю.Костюнина, С.У.Бичурина</b> Неблагополучная семья как фактор девиантной виктимности.....	17
<b>О.Н.Фозилова, Sh.S.Rayimova</b> Bola shaxsi rivojlanishida muloqotning o'rni .....	22
<b>A.S.Toshmatov</b> The role of self-efficacy in teaching foreign languages to improve writing skills.....	25
<b>G.Sh.Latipova</b> Malaka oshirish tizimi tinglovchilarining shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari .....	31
<b>Sh.D.Iskanderova</b> Fundamentals of pedagogical training: instructional strategies for early learners .....	38
<b>I.M.Saidov</b> Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirishning tamoyillari hamda uning tarkibiy qismlari.....	43
<b>Н.Ш.Абдуллаева</b> Characteristics and evolution of middle English language.....	48
<b>M.A.G'ofurova</b> Bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlantirish texnologiyalari.....	54
<b>N.F.Yigitaliyeva</b> Pediatriya ishi yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda simulyatsiyalar orqali kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi .....	59
<b>T.T.Shoyardonov</b> Oliy ta'lim pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish tajribasi: tahliliy yondashuv .....	63
<b>S.M.Abdullayev</b> Fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari.....	69
<b>D.O.Djalilova</b> Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentsiyasini rivojlantirishning metodologik jihatlari .....	73
<b>D.I.Gulamova</b> Evfemizmlarning o'rganilish tarixi .....	77
<b>B.T.Jumayeva</b> Gender yondashuv asosida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari .....	81
<b>A.R.Saydullayeva, K.L.Ro'ziyeva</b> Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari.....	81
<b>A.R.Saydullayeva, M.E.Nabiyeva</b> Zararli odatlarga qarshi pedagogik immunitet tushunchasi va uning ahamiyati. ....	89
<b>G'.R.Israilov</b> Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli .....	93
<b>A.X.Karimov</b> Oliy tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning nazariy jihatlari .....	97
<b>М.Н.Насритдинова</b> Инновационная артпедагогика как ресурс развития художественно-творческой компетентности у будущих педагогов в цифровую эпоху.....	100



UO'K: 37.015.3:305

**GENDER YONDASHUV ASOSIDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI  
SHAKILLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK ASOSLARI****СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА****SOCIO-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING SOCIAL COMPETENCE  
BASED ON A GENDER APPROACH****Jumayeva Baxtilaxon Tolibjon qizi** Farg'ona davlat universiteti "Pedagogika kafedrası" pedagogika nazariyasi va tarixi  
mutaxassisligi magistranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ijtimoiy kompetentlik tushunchasining mazmuni va mohiyati keng tahlil qilinib, uning shaxs rivojlanishidagi o'rnini va ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, gender yondashuv doirasida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari, ularning ijtimoiy hamkorlik, muloqot madaniyati hamda jamiyatdagi gender tenglik tamoyillariga ta'siri batafsil tahlil etilgan. Maqolada ushbu masalalar bo'yicha ilg'or ilmiy-nazariy yondashuvlar hamda amaliy tavsiyalar keltirilgan.

**Аннотация**

В данной статье подробно анализируются содержание и сущность понятия «социальная компетентность», а также её роль и значение в развитии личности с научной точки зрения. Кроме того, рассматриваются процессы формирования и развития социальной компетентности в рамках гендерного подхода, а также их влияние на социальное взаимодействие, культуру общения и принципы гендерного равенства в обществе. В статье представлены современные научно-теоретические подходы и практические рекомендации по данной проблематике.

**Abstract**

This article offers a comprehensive analysis of the concept of social competence, its nature, and its significance in personal development from a scientific perspective. It also explores the processes of developing social competence within a gender-based approach and analyzes their influence on social interaction, communication culture, and principles of gender equality in society. The article presents advanced theoretical frameworks and practical recommendations related to the topic.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, ijtimoiy kompetentlik, gender yondashuv, jinslararo munosabat, itoatkorlik, kommunikativ qobiliyat, psixologik moslashuv, shaxslararo muloqot, gender stereotiplar, tenglik tamoyillari, madaniy ijtimoiylashuv, axloqiy me'yorlar, liderlik va ijtimoiy faollik.

**Ключевые слова:** Компетенция, социальная компетентность, гендерный подход, межгендерные отношения, покорность, коммуникативные способности, психологическая адаптация, межличностное общение, гендерные стереотипы, принципы равенства, культурная социализация, нравственные нормы, лидерство и социальная активность.

**Key words:** Competence, social competence, gender approach, intergender relations, obedience, communicative ability, psychological adaptation, interpersonal communication, gender stereotypes, equality principles, cultural socialization, moral norms, leadership, and social activity.

**KIRISH**

Hozirgi zamonaviy jamiyatga munosib bo'lgan raqobatbardosh kadr tayyorlash dolzarb masalalardan biri desak yanglishmaymiz. Hozirgi davrga munosib bo'lgan kadr tayyorlash masalasiga e'tibor qaratishda, avvalo, qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar, kadrning kasbiy va ijtimoiy kompetensiyasi qay darajada ekanligiga bilish muhim o'rin egallaydi. Avvalo, kompetensiya tushunchasini lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak, "kompetensiya lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman, degan ma'nolarni bildiradi". Kompetensiya – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki imkoniyatlarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kompetensiya inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma‘nosi “qobiliyat” demakdir, biroq “kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatini ifoda etishga xizmat qiladi”. Shu ma‘noda, kompetensiya bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatlarni kashf etish, shakllantirish va rivojlantirish jarayonining xosilasi hisobalanadi. Rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, xususan V.Sepikov fikricha, “kompetensiyani shaxsiy o‘zini-o‘zi anglashga hissa qo‘shadigan bilim, ko‘nikma, ta‘limning mavjudligi” sifatida belgilaydi va “kompetentlikni esa hayot davomida mohirona bajarilgan harakat” hisoblanadi. Boshqa bir olim V.I.Baydenko fikricha, kompetensiya deganda “ harakatlarning maqsadi va yashash sharoitini e‘tiborga olgan holda aniq vaziyatda dolzarb bo‘lgan barcha resurlarni harakatlantirishga (mobilizatsiyalashga) qobiliyatlik yoki tayyorlik” tushunilishini ta‘kidlaydi. Yana bir olim E.F.Zeyerning ta‘rifiga ko‘pa, kompetensiya deganda, “faoliyatning adekvat meyyoriga aylanadigan, bilim, ko‘nikma, malaka va faoliyat qobiliyatlari va qadriyatli motivatsion komponentlarini o‘z ichiga olgan interaktiv konstruksiyalar” tushuniladi. Pedagog olimlardan C.YE.Shishov va I.G.Agapov fikricha, kompetensiya shaxsning o‘quv jarayonida olingan bilim va tajribaga asoslangan qobiliyatlarini, shuningdek, uning harakatga tayyorligini anglatadi.

#### NATIJALAR

Ijtimoiy kompetentlik va gender yondashuvning o‘zaro bog‘liqligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gender yondashuv asosida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish jinslararo tenglikni ta‘minlash, shaxslararo munosabatlarni yaxshilash hamda gender stereotiplarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari aniqlab berildi. Shaxsning ijtimoiy kompetentligi uning kommunikativ qobiliyatlari, psixologik moslashuv darajasi, hamkorlikka tayyorligi va genderga oid axloqiy qadriyatlarni qanchalik o‘zlashtirganligi bilan belgilanadi.

Gender yondashuv asosida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida oilaviy tarbiya, ta‘lim muassasalaridagi gender tenglikni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar, o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va jamiyatdagi gender stereotiplarning ijtimoiy kompetentlik rivojiga ta‘siri aniqlandi.

Pedagogik metod va yondashuvlarning samaradorligi baholandi. Eksperimental tadqiqot natijalariga ko‘ra, interfaol o‘qitish texnologiyalari, genderga yo‘naltirilgan ta‘lim metodlari va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda ijobiy natija bergan.

Amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot asosida ta‘lim muassasalari va pedagoglar uchun gender yondashuvni inobatga olgan holda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, ta‘lim jarayonida jinslararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan treninglar, muhokamalar va loyiha faoliyatlarini qo‘llash taklif etildi.

#### MUHOKAMA

Kompetensiyalar shaxsning mustaqilligiga, o‘quv va amaliy faoliyatda ko‘zlangan muvaffaqiyatiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Bunday yondashuvni ilgari surgan olimlardan biri V.D.Shadrikov bo‘lib, uning so‘zlariga ko‘pa, kompetensiyalar shaxsning biror kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanadi va yuzaga kelgan funksional vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon yaratadigan bilim, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarining tizimli namoyon bo‘lishini nazarda tutadigan faoliyat subyekting yangi bir tipi hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham kompetensiyaviy yondashuv asosida ta‘limni zamonaviylashtirish, integrativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan bir qancha olimlarni tilga olish mumkin. Masalan, B.X.Xodjayev “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta‘riflar kasbiy ta‘lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqligini bayon etib, ushbu tushunchani umumiy o‘rta ta‘lim bilan bog‘lagan holda ta‘rif beradi. U kompetensiyani “ma‘lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo‘lgan, o‘quvchining avvaldan belgilangan ta‘limiy tayyorgapligiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (meyorlar)dan ham o‘zib ketishidir” deb ta‘kidlaydi. A.V.Mudrikning fikricha, “ijtimoiylashtirish” (“sotsializatsiya”) atamasining muallifi amerikalik sotsiolog F.G.Giddings hisoblanadi. U 1887 yilda o‘zining “Ijtimoiylashtirish nazariyasi” (“Teoriya sotsializatsii”) kitobida bu atamani hozirgi zamonaviy ma‘nosiga yaqin ma‘noda ishlatgan: “individning ijtimoiy tabiati va xarakterining rivojlanishi – insoniy materialni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir” .

“Ijtimoiy kompetentlik” tushunchasining ko‘p o‘lchovliligi, ijtimoiy-madaniy vaziyatning noaniqligi, uning ta‘lim va tarbiya jarayonida sust qo‘llanilishini E.F.Zeyer terminologik nuqtai nazardan “ziddiyatli voqeliklar” sifatida tavsiflaydi hamda ularni “inson subyektiv hayotining real hayot bilan, obyektiv voqelik bilan nomutanosibligi, qarama-qarshiligi” sifatida baholaydi.

Shaxsning ijtimoiy kompetentligi shaxsning yaxlit ijtimoiy sifati bo‘lib, u ijtimoiy haqiqatni aniq qadrlashni, harakatga ko‘rsatma sifatida aniq ijtimoiy bilimlarni, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish va qoidalar yaratish kabi subyektiv imkoniyatlarni o‘z ichiga olgan, hayotning asosiy sohalariga (ijtimoiy institutlar, me‘yorlar va munosabatlar tizimida) tegishli madaniyat, axloq va qonun darajasiga muvofiq ravishda ijtimoiy texnologiyalarni amalga oshirish qobiliyatidir. Gender tengligi orqali ijtimoiy taraqqiyotda hurmat va hamkorlik madaniyati bacha jinsdagi shaxslar orasida kuzatiladi. O‘z navbatida ularni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida gender yondashuvini ham hisobga olish zaruriy hisoblanadi. Yoshlarni gender tenglik ruhida tarbiyalashning eng muhim ahamiyati ularni, birinchi galda, qiz bolalarni o‘zligini anglashiga, ijtimoiy muhitni, ijtimoiy ruhiyatni, ichki uyushtiruvchi, xarakatga keltiruvchi va yetaklovchi, inson qadr-qimmatining jinsiga qarab belgilanmasligini isbotlovchi kuchga aylanishiga xizmat qilishidir. Bu holda gender tenglik g‘oyasi (o‘g‘il va qiz bolalarga teng huquq hamda teng imkoniyatlar yaratish) shaxsning ham, jamiyatning ham ma‘naviy yuksalishiga ta‘sir qiladi, insonlarini anglashga, ijtimoiy tafakkurning o‘zgarishiga olib keladi.

Gender tenglik g‘oyasi jamiyatda yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishga, mustaqil fikrlashga, ma‘naviy-ruhiy jihatdan tenglik tamoyillarini o‘ziga singdirishga undovchi va uni harakatga keltiruvchi bunyodkor g‘oyadir.

Gender yondashuv asosida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini ikki tomonlama yutuq sifatida qarash mumkin. Har bir shaxs bevosita jinslararo munosabatlar tizimini kompetensiyaviy asosda optimallashtirishga erisha oladi.

Gender sotsializasiya insonning butun hayoti davomida davom etadi, lekin ular ulg‘aygan sari qadriyatlar va ko‘rsatmalar tanlash mustaqilligi oshadi. Ba‘zi hollarda, kattalar genderni qayta ijtimoiylashtirish (resosializasiya), ya‘ni ilgari qabul qilingan qadriyatlar va modellarni yo‘q qilish va yangilarini o‘zlashtirishni boshdan kechirishi mumkin.

### XULOSA

Genderga mos xulq-atvorni o‘rgatish va o‘rganish tendensiyasi mavjud, garchi muayyan jamiyatga qarab aniq nima o‘rgatilishida farqlar mavjud bo‘lsada. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida ota-onalar va o‘qituvchilarning xatti-harakatlari jinsga qarab farqlanadi: o‘g‘il bolalarga qizlarga qaraganda muammolarni mustaqil ravishda hal qilish uchun ko‘proq imkoniyatlar beriladi. Qizlar uchun asosiy e‘tibor itoatkorlik, mas‘uliyat va mehnatsyevarlikka, o‘g‘il bolalar uchun esa muvaffaqiyatga intilish, raqobat va o‘ziga ishonishga qaratilgan. Ayollar iqtisodiy jihatdan kamroq qaram bo‘lgan jamiyatda qizlarni itoatkorlikda tarbiyalash tendensiyasi shunga mos ravishda kamroq aniqlanganlini aniqlash mumkin.

Gender yondashuvni ijtimoiy kompetentlik asosida shakllanishi ta‘lim va tarbiyaviy jarayonda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyalanuvchilar ta‘lim va tarbiya jarayonida o‘zaro erkin muloqot asosida bir- biriga va boshqa jamiyat qatlamlariga nisbatan munosabatlar tizimiga nisbatan avtomatlashgan malakaga ega bo‘ladi deyish mumkin.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Пономарев Я.А. Психология творчества. – М.: 1976. – 304 стр.
2. Рисдулова К.Ж. Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолонгвистик компетентлигини шакллантириш тизими: пед. фанл. доктори (DSc). ...дисс. автореф. – Тошкент: 2017. – Б. 14 стр.
3. Abduraxmanova J.N. Zamonaviy jamiyatda gender tengligi ta‘minlash – ustuvor vazifa sifatida. Academic research in educational sciences. Volume 2 | ISSUE 9 | 2021. – B. 400-406 p.
4. Ageyev B. S. Psixologicheskiye i sosialnyye funktsii polorolevyykh stereotipov // Bopr. psixologii. 1987. № 2. S. 152–157p.
5. Ageyev B. S. Psixologicheskoye issledovaniye sosialnykh stereotipov // Bopr. psixologii. 1986. № 1. S. 9–101p.